

---

“Kamalak yulduzlari” bolalar ijodiyoti festivalining tuman bosqichi g‘oliblari aniqlandi

***Qo’shtepa tumanidagi 15-sonli bolalar musiqa va san’at maktabida “Kamalak yulduzlari” bolalar ijodiyoti festivalining tuman bosqichi o‘tkazildi.***

Festivalni Yoshlar ittifoqi tuman Kengashi raisi A.Abdumalikov ochib berib, ishtirokchilarni tadbir maqsadi bilan tanishtirdi. Yoshlarimizning milliy mafkuraviy bilimlarini oshirish, milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar natijadorligini ta’minlashda davlat va jamoat tashkilotlari, ijodkor ziyolilar rolini kuchaytirish, bolalar ijtimoiy faolligini oshirish borasida olib borilayotgan ishlar xususida to‘xtaldi.



Festivalda tumandagi barcha umumiy oʻrta taʼlim maktablaridan saralangan oʻquvchilar 6 ta nominatsiya boʻyicha oʻz isteʼdodlarini namoyish qildi.



Yakuniy natijalarga ko'ra, 13 nafar ishtirokchilar g'olib sifatida e'tirof etildi va viloyat bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.





G'oliblar diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

***Shohrux RAHMONBERDIYEV,***

***Yoshlar ittifoqi tuman Kengashi bosh mutaxassisi***

2019-11-23 17:18:07